

"ORTA OSIYO GENERALI"

Jumanazarova Rayyona Muradullayevna

*TDYU qoshidagi M.Vosiqova nomidagi akademik
litseyning 2-bosqich 2-guruh o'quvchisi*

Annotatsiya: Tarixga nazar solar ekanmiz, insoniyat mavjud bo'la boshlabdiki, uning hayot turmush tarzining bir qismi sifatida urushlarni eslaymiz. Ammo bu urushlarda ham hamma askar-u odamlar yodga olinavermaydi, faqatgina jonbozlik ko'rsatib, o'zining jonidan ham kechganlar yodimizda bir umr qoladi va ular haqidagi tarix kelajak avlodlarga yetkaziladi hamda ularda ham ana shunday ajdodlarida bo'lGANI kabi vatanparvarlik tuyg'usi shakllantirib boriladi. Albatta, qalbimizda faxr uyg'otguvchi ajdodlarimiz sanasak oxiriga yetish qiyin.

Kalit so'zlar: Sobir Rahimov, "Ko'mak" jamiyati, Ishchi-Dehqon Qizil armiyasi, "Qizil bayroq" ordeni , "Qizil yulduz" ordeni , Muhammad Ziyoyev, Vasilyev, "Sovet Ittifoqi Qahramoni" ordeni.

Ana shunday ajdodlarimizdan biri general Sobir Rahimov Umar o'g'li 1902-yil 25-yanvarda Toshkent shahrida tavallud topgan. Ammo ba'zi ma'lumotlarda keltirilishicha, generalning tug'ilgan joyi sifatida hozirgi Janubiy Qozog'iston viloyatining Kazigurt tumani deb hisoblashadi. Bo'lajak harbiyning oilasiga nazar soladigan bo'lsak, tegirmonchi oilasida dunyo yuzini ko'rgan Sobirning onasi o'zbek, otasi esa qozoq millatiga mansub Umar Rahim o'g'li bo'lgan. Sobir 7 yoshligidayoq otasi hayotdan ko'z yumgan. Erta otasidan ajralgan bola onasi bilan Toshkent viloyatida yashovchi Rahimjon ismli tog'asini kiga ko'chib keladi. Oilaviy sharoiti og'irlashib qolayotgani sabab, 1921-yillargacha onasiga yordam berish uchun tikuvchiga shogird tushadi. "Ko'mak" jamiyati homiyligi ostida ta'lif olish maqsadida bir qancha o'zbek yoshlari bilan Ozarbayjonga 1922-yil ketadi va shu yili Ishchi-Dehqon Qizil armiyasiga yoziladi. Oradan 3 yil o'tib, Ozarbayjonning markaz shahri bo'lmish Bokuda harbiy makkabni bitirdi. Turkiston harbiy okrugida bur necha yil kavaleriyaga qo'mondonlik qilgan. Sobir Rahimov o'zining dastlabki ordeni, ya'ni Qizil Bayroq ordeniga 1926-yil sazovor bo'ldi. So'ngra U qo'mondonlik tarkibini mukammallashtirish kurslarini o'zlashtirish uchun yuborildi va 1930-yili shu kursni bitirdi. 1932-yil 17-mayda 6-O'zbek tog'-otliq diviziyasida o'z faoliyatini boshladi. Oradan 4 yil o'tib, 19-O'zbek tog'-otliq diviziysi tarkibidagi 42-O'zbek tog'-otliq polki shtab boshlig'i sifatida ish olib bordi. 1936-yil 30-aprelda Sobir Rahimov yana bir bor

hukumat tomonidan bosmachilar bilan kurashda ko'rsatgan qahramonliklari uchun "Qizil yulduz" nomli mukofot loyiq deb topildi va taqdirlandi. Biroq bunday maqtovlar-u, ko'tarilishlarning muddati uzoqqa cho'zilmadi. U vakolatli shaxslar tomonidan 1938-yil 17-mart kuni berilgan order asosida qamoqqa olinadi. Sobir Rahimovning shaxsiy anketasiga ko'ra, bu vaqtda uning oila a'zolari sifatida turmush o'rtog'i Rahima Hasanova va uning onasi Shosiro'y xonimlarning nomlari keltirilgan. U ilk so'roqdayoq o'ziga qo'yilgan ayblovlarni mutloq rad etadi. Shunga qaramay, 1938-yil 28-mart kuni unga O'zSSR Jinoyat kodeksining 57-(chet el josusi) va 67-(aksilingilobiy tashkilot a'zosi) moddalarini qo'llab hukm chiqarishadi. 1938-yil 1-apreldan tergovchilar undan aksilingilobiy tashkilot a'zosi ekanligini tan olishini talab qiladi. U tahqir va qiyonoqlarga sabot bilan bardosh berdi. Topilgan ma'lumotlarga qaraganda, 1938-yil 7-8-aprel kunlari tergovchi Vasilyev avval musht, so'ng 1,20 metrlik metal kaltak bilan tinimsiz savalaydi. Shundan so'ng 7 kun davomida tik oyoqda turg'izib qo'yib, muttasil jismoniy qiyonoqlar qo'llaydi. 15-aprel kuni aqldan ozish darajasiga kelgan Sobir Rahimov qo'liga tutilgan qog'ozlarga imzo chekadi va shu kuni uni kameraga sudrab olib kelishadi. Sobir Rahimovni 1938-yil 19-may kuni yana tergovga chaqiradilar. Bu gal undan diviziyyada mavjud aksilingilobiy tashkilot a'zosisan va qolgan a'zolarning nomlarini ham keltirasan deb talab qilishadi. U 19-O'zbek tog'-otliq diviziyyasida hech qanday aksilingilobiy tashkilot yo'q deb javob beradi. Shundan so'ng Vasilyev uni tahqirli so'zlar bilan haqoratlab, "Mirsharopov marshi"ni kuylagansan, "Ruslar ustimizdan to'la hukmronlik qilmoqchi, bu dayuslar bizni komandir sifatida tan olmayapti", degansan, endi hammasiga javob berasan, deydi. Sobir birorta ayblovni tan olmasligini va biror joyga imzo chekmasligini ma'lum qiladi. 22-may kunitan boshlab yana 4 kun mobaynida tik oyoqda saqlab, qiyonoqqa soladilar. Zulm va ochlikdan holsizlangan Sobir Rahimov 1938-yil 25-may kuni hushidan ketib yiqiladi. Shu yili 12-sentabr kuni yana so'roqqa chaqiriladi. Bu gal uning oldiga guvoh Muhammad Ziyoyev degan kimsani keltirishadi. Yuzlashtirishda Muhammad Ziyoyev 1932-yil may oyida Samarqandda, aksilingilobiy tashkilot yig'inida uni ko'rganligini aytadi. Sobir Rahimov indamay tinglaydi va o'zining aynan o'sha vaqtida Samarqandda emas, Toshkentda bo'lganini isbotlab beradi. Bu gal ham ishi o'xshamagan tergovchilar S.Rahimovni 14-19-sentabr kunlari yana tik holatda, mislsiz qiyonoqlarga soladi. Sobir Rahimov o'ziga qo'yilgan barcha bo'htonlarni qat'iy rad etib, birorta ayblovni tan olmasligini ma'lum qiladi. "1938 yilda qizil armiya safidan zaxiraga bo'shatilgan." Sobir Rahimovning 1939-yil 30-aprel kuni Beriyaga yozgan arizasi, baxtli tasodifmi, uning qo'liga yetib boradi. Mazkur ariza

asosida 1939-yil 17-may kuni S.Rahimov ishi yuzasidan qayta tekshirishlar boshlanadi. Shu yilning 25-iyun kuni bo'lgan so'roqda Sobir Rahimov o'ziga nisbatan qilingan bo'hton, noqonuniy qiynoq va tahqirlarni so'zlaydi. Oradan 4 kun o'tib, qayta tergov yakunlanib, unga qo'yilgan O'zSSR Jinoyat kodeksining 57-2, 63-, 65-, 67-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlar dalillar bilan isbotini topmagani sababli ham oqlashga qaror chiqariladi. 1939-yil iyul oyining 2-kuni Sobir Rahimovdan qamoqda qo'llanilgan qiynoqlar va so'roqlarni mutloq sir tutishga so'z beruvchi tilxat olinadi va turmadan chiqishi uchun talon beriladi. Oradan oylar o'tib, 1939-yil 9-oktabr kuni Sobir Rahimov bilan birga Yo'Idosh Shokirov, Solijon Meliyev, Ivan Anvarov, Qo'shoq To'xtaboyev, Abduqodir Abdurahimov, Mahmud Eshmatov, Hamid Ismoilov kabi qatag'onga uchragan o'zbek zabitlarining ozodlikka chiqqani qonuniylashtiriladi. 1940 yilda armiyaga qayta tiklanadi va Rahimov g'arbiy maxsus harbiy okrugga yuboriladi. Sobir Rahimov 1 yildan so'ng, iyun oyida Ikkinci jahon urushiga mayor unvonida, motoo'qchilar polkining komandiri o'rribbosari lavozimida kirishgan. Iyul oyida esa yaralanib, gospitalda davolandi. 1941-yilning noyabr oyi so'ngida shiddatli janglarda o'z polki bilan Rostov shahrini birinchi bo'lib ishg'ol etadi va bu xizmati uchun "Qizil bayroq" ordeni bilan taqdirlanadi, o'sha yil noyabrida 56-armiyaning 1149-o'qchi polki qo'mondoni bo'lib frontga qaytdi. Janubiy frontda Rostov va Taganrog himoyasida qishni o'tkazdi. "Bolshie Salı qishlog'idagi janglarda polknasi jasurlik bilan boshqardi, o'z ibrati bilan jangchilarni jangga chorlab, dushmanga katta talofat yetkazdi. 28 va 29-noyabrdagi Rostov uchun jangda uning rahbarligidagi polk Rostovni birinchi bo'lib ishg'ol etdi va Kamenolomnya rayoniga kirib bordi. O'rtoq Rahimov hukumat mukofoti — "Qizil Bayroq" ordeni bilan mukofotlandi", — deyiladi 1941-yil dekabrda Rahimovning jasorati uchun taqdim etilgan taqdirlov varaqasida. Ta'kidlab o'tish joizki, qamoqda unga nisbatan qilingan vahshiyona qiynoqlar o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. 1942-yil yanvarida yaralanib, kontuziyaga uchradi. Shu yilning og'ir yozida, Vermaxt Qizil armiyani Volgaga taqab qo'ygan paytda Rahimov Shimoliy Kavkaz mudofaasida ishtirok etadi va o'z diviziysi bilan nemis qo'shinlarining Kavkaz neftiga yetib kelishlariga yo'l qo'ymaydi. Sentabrga kelib Rahimov diviziyyaga qo'mondonlikni o'z qo'liga oladi. 1942-yil kuzida diviziya Tuapseni mudofaa qilib, nemislarning Qora dengizga chiqishlariga to'sqinlik qiladi. Rahimov diviziysi uchun eng og'ir janglardan biri 23-sentabrdagi bo'ladi — dushman unga qarshi artilleriya va 75ta samolyot hujumidan keyin uch yarimta polk piyoda qo'shinlarini, beshta tank, 11 bronetank va bronemashinalarni tashlaydi. 1943-yil boshida shu diviziya

Shimoliy Kavkaz mintaqasida o‘zini yaxshi ko‘rsatdi va Polkovnik Sobir Rahimov 19 martda General-mayor harbiy unvonini olgan. 1944-yil noyabr oylariga kelib, 65-armiyaning 37-gvardiya o‘qchi diviziysi qo‘mondoni etib tayinlandi. 1945-yil fevralida 37-diviziya askarlari 9-ming kishilik garnizon himoyasida turgan Grudzyondz shahrini zabt etishdi. Bir necha kundan so‘ng general Rahimov boshliq diviziya Dantsig shahriga birinchi bo‘lib kirdi. General I.Fedyuninskiy komandirligidagi diviziya 1945 yil 16 fevralda kuchli zarba bilan shahar chetidagi dushman istehkomlariga yorib kirib, bir necha aholi yashash punktlarini ozod qiladi va shaharga kirib boradi. Rahimov bo‘linmasining qat’iy harakatlari, garnizonning asosiy kuchlarini unga qaratishga majbur qiladi, natijada 22 fevralga o‘tar kechasi boshqa bo‘linmalar ham turli yo‘nalishlardan hujum qilib, shahar ozod qilinadi. Ushbu yilning 26-mart kuni Gdansk shahrini ozod etish uchun bo‘lgan jangda hujumga o‘tgan dushman kemalari artilleriyasidan otilgan katta kalibrli to‘plardan diviziyaning kuzatuv punkti yo‘q qilindi. Kuzatuv postida bo‘lgan General-mayor Sobir Rahimovning boshi snaryad parchasidan og‘ir yaralandi va sakkiz soatdan keyin hushiga kelmasdan kasalxonada vafot etdi.

Achchiq , ammo , haqiqat bo‘lgan bu tarix Sobir Rahimovning chindan ham matonatli ekanligining yaqqol misoli. Shu o‘rinda Stalinning uni “temir general” deb ta’riflagani bejizga emas. Sobir Rahimovni armiya Generali Ivan Feduninskiy shunday tavsiflaydi : "Baland bo‘yli, cho‘zinchoq yuzlari janub quyoshida qoraygan, kalta va keng burunli general-mayor Sobir Umar o‘g‘li Rahimov diviziya holati haqida qisqa, lekin aniq hisobot berdi. Uning hisobotida ayrim komandirlarga ham tavsif berilgani esa generalning qism va bo‘linmalarda tez-tez bo‘lishini hamda o‘z qo‘l ostidagilarni juda yaxshi bilishidan darak beradi."

Oradan yillar o‘tib, urush paytida ko‘rsatgan jasoratlari uchun General-mayor Sobir Rahimovga 1965-yil 6-mayida SSRI Oliy Kengashi Prezidiumi qarori bilan „Sovet Ittifoqi Qahramoni“ unvoni berildi. «Shon-sharaf» muzeyi tarixchilarining ma'lumot berishicha, 60-yillar o‘rtalarida Sobir Rahimovning rafiqasiga Gdansk shahrining ramziy kaliti topshiriladi. Buning bilan polyak xalqi dushmanlardan ozod bo‘lishda jonbozlik ko‘rsatgan shaxsni unutmasligini bildiradi. Bu voqealardan 2 yil o‘tgandan so‘ng esa unga bag‘ishlab Komil Yashin pyesasi asosida „O‘zbekfilm“ studiyasida „General Rahimov“ badiiy filmi suratga olingan. 1981-yili Toshkent shahrining Sobir Rahimov tumanida haykal o‘rnatalgan . Mustaqillik yillarda Toshkent va Samarqand shaharlarida Sobir Rahimov haykallari o‘rnatalgan (2011-yilda

haykal ko'chirildi). 2018 yil mayida generalning haykali Toshkent shahar Olmazor tumanidagi xiyobonda qayta qad rostladi.

Mardlik - mangudir deganlaridek, Sobir Rahimovning qilgan jasoratlari, mardonavor kurashlari hamisha yodimizda qoladi. Kuni kecha, 25-yanvar kuni Rahimov tavalludiga 122 yil bo'libdi. Bundan ko'rinishdiki, hech bir ish nom-nishonsiz qolmaydi, shunchaki esdan chiqarilmaydi. Zero, Inson bu dunyoga bir ish uchun kelgan: g'oya uchundir, agar uni qilmasa, hech bir ish qilmagan bo'ladi. Shu so'zlarga muvofiq holda Sobir Rahimov ham o'z ortidan yaxshi nom, o'chmas tarix va katta jasorat qoldirdi. Rahimov va bizning boshqa ajdodlarimizdan o'mak olgan holda, biz ham o'zimizning haqiqiy o'nimizni topa bilishimiz kerak deb o'layman. Axir bizdan yaxshi nomdan ortiq narsa qolmagay!

FOYDALANILGAN MANBALAR:

- <https://uz.m.wikipedia.org>
- <https://oz.sputniknews.uz>
- <https://kun.uz>
- <https://oyina.uz>